



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 107 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI	56
Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI.....	60
Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	63
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	
YOSH MUTAXASSISLARINING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI	68
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI	75
Mirabdullayeva Sh. A.	
GLOBALLASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	79
Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	



ВЛИЯНИЕ СТИЛЕЙ ПРИВЯЗАННОСТИ РОДИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ПРАКТИКИ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ С ДЕТЬМИ.....	83
Шомуродова Махфуза Аслитдиновна	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY DINAMIK RIVOJLANISHIDA SHAXS IJTIMOYILASHUVI VA ADAPTIV INTELLEKT MUAMMOSI.....	88
Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna	
LOGOTERAPIYA USULIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH.....	93
Narziqulova Gulrux Axrorovna	
O'ZINI O'ZI TUSHUNISH TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI	98
Mahmudov Abdurasul	
ICHKI LOKUS NAZORATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI O'QUVCHILARDA MUVAFFAQIYAT MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	102
Karimov Sherzod Abdurasulovich	

BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY DINAMIK RIVOJLANISHIDA SHAXS IJTIMOIYLASHUVI VA ADAPTIV INTELLEKT MUAMMOSI

Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti
"Psixologiya" kafedrasini mudiri,
p.f.n, professor v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqola bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligining dinamik rivojlanishida shaxs ijtimoiylashuvi va faolligining namoyon bo'lishi muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda oliy ta'lim tizimida talaba shaxsini mutaxassis sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarga e'tibor qaratilgan. Maqolada psixologiya fanlari doktori, professor V.M. Karimova va boshqa olimlarning ushbu muammoga doir qarashlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy shart-sharoit, malaka va ko'nikmalar, differensial yondashuv, mutaxassis shaxsi, ta'lim jarayoni, oliy ta'lim tizimi, kasbiy kompetentlik, dinamik rivojlanish.

Abstract: This article is devoted to the issues of the manifestation of socialization and activity of the individual in the dynamic development of professional competence among future specialists. It focuses on the factors influencing the formation of students' personalities as professionals within the higher education system. The article also presents the views of Doctor of Psychological Sciences, Professor V.M. Karimova, and other scholars on this problem.

Key words: professional training, social conditions, skills and abilities, differential approach, specialist's personality, educational process, higher education system, professional competence, dynamic development.

Аннотация: Данная статья посвящена проблемам проявления социализации и активности личности в процессе динамического развития профессиональной компетентности будущих специалистов. В ней уделено внимание факторам, влияющим на формирование личности студента как специалиста в системе высшего образования. В статье приведены взгляды доктора психологических наук, профессора В.М. Каримовой и других учёных на данную проблему.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, социальные условия, навыки и умения, дифференциальный подход, личность специалиста, образовательный процесс, система высшего образования, профессиональная компетентность, динамическое развитие.

KIRISH

Oliy ta'lim tizimi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon o'ta murakkab hamda ko'p bosqichlidir. Bu jarayon ustida doimiy ishlash va uni takomillashtirib borish muhim. Psixologiya fanlari doktori, professor V. M. Karimova [1] oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligining psixologik xususiyatlarini o'rganish sohasida olib borgan tadqiqotlarida bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash, ularda mutaxassis shaxsi va faoliyatiga xos zaruriy sifat hamda fazilatlarining shakllanishida ijtimoiy-madaniy, milliy-hududiy xususiyatlar muhim o'rin egallashini e'tirof etadi.

Jahonda raqobatbardosh, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularning shaxsiy va kasbiy kompetentlik darajasini oshirish, bo'lajak mutaxassisning kasbiy mavqeini tarkib toptirish, o'z-o'ziga bahoni shakllantirish, o'z ustida ishlashga yo'naltirish va kasbiy rivojlantirish, asosiy kasbiy hard skills hamda ijtimoiy egiluvchan, moslashuvchan soft skills ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Jahonda ilm-fan va texnika rivojlanib, kasbiy faoliyat jabhalarining kengayishi, davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta'lim tashkilotlarining ta'lim jarayonidagi faolligi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi o'zgarishlar kasbiy faoliyat psixologiyasi va raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash masalasiga jiddiy e'tibor



qaratishni ustuvor vazifaga aylantirmoqda. Global Creativity Index (GCI) hisobotida keltirilishicha, san'at, ijod va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda yoshlarda ijodkorlik, soft skills ko'nikma va malakalarini shakllantirish ko'rsatkichining o'sishi kuzatilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, psixologiya sohalarning kengayishi fanning nazariy asoslarini yaratish bilan bir qatorda, amaliy asoslariga zamin yaratuvchi omil sifatida ham muhimdir. Bu holat psixologiya va pedagogika sohalari mutaxassislarining amaliy kasbiy faoliyatini nafaqat rivojlantirish, balki amaliyotini tashkil etishning ilmiy asoslarini tarkib toptirish zarurligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti muvaffaqiyatining zamini yaxshi mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog'liq ekanligi yaqqol ko'rinmoqda. Kadrlarga ta'lim berish, ularni kasbiy tayyorlash, kelajakda ulardan nima kutilayotganini ular tomonidan anglab yetish zarurligini singdirish mutaxassis tayyorlash tizimini takomillashtirish, samarali jarayonni tashkil etish va boshqarish kundan-kunga murakkablashib borayotganini ko'rsatmoqda.

Butun dunyo mutaxassislarida hard skills va soft skills amaliy ko'nikma hamda malakalarning shakllanganligiga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu amaliy ko'nikmalar faoliyatning va shaxslararo munosabatlarning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bo'lajak mutaxassislarida amaliy kasbiy ko'nikma va malakalarni nafaqat shakllantirish va rivojlantirish, balki ularga ilmiy asosli yondashuvni ishlab chiqish, empirik materiallar asosida ularni takomillashtirish bo'yicha doimiy tadqiqotlar olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi samarali bo'lishida V. M. Karimovanning fikricha, saboq oluvchilarning erkinligini oshirish va ijodiy ishlashlari (fikrlashlari) uchun zaruriy ijtimoiy shart-sharoitni yaratish maqsadga muvofiqdir. Olima o'z tadqiqotlarida talabalarda mustaqil fikr yuritish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish uchun, avvalo, talaba va mutaxassis o'zaro munosabatlarini tubdan o'zgartirish, talabani ta'lim jarayonining faol sub'ekti sifatida shakllantirish lozimligini ko'rsatadi. Buni samarali tashkil etishning bir qator psixologik shartlari va omillari mavjudligini ta'kidlaydi. Bular:

ta'lim beruvchi talabalarni qanday bo'lsa, shundayligicha — iqtidori, layoqati va boshqa imkoniyatlari bilan idrok qilishga, tabiiy tarzda qabul qilishga o'rgatish;

har bir ta'lim muassasasi amalda yoshlarga differensial yondashuvni tashkil etish va ulardagi psixologik imkoniyatlarni e'tiborga olish;

ta'lim muassasasida o'qitishning yangicha texnologiyasi va yoshlar aqliy faoliyatidan foydalanishning demokratik turlarini joriy etish. Bunda asosiy jihat — o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uning har bir fikri va yuksalishiga e'tibor bilan qarash;

ta'lim jarayonida guruhda pedagogikaning faol va boshqa interfaol metodlaridan keng va o'rinli foydalanish, talabaga ko'proq o'z fikrlarini izhor qilish uchun imkoniyat yaratish;

erkin va mustaqil fikrlash uchun psixologik "fazo" va "makon" tushunchalarining ahamiyatini hisobga olib, guruhda ishlash qonunlari va ijtimoiy-psixologik mezonlarni to'la inobatga olish zarurligini alohida qayd etadi.

Kasbiy mahorat va kompetentlik nafaqat o'quv jarayonida, balki mutaxassisning o'z ustida ishlashi hamda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirishiga ham bog'liqdir [4]. D. Muxamedovanning fikricha, bugungi kunda zamonaviy oliy ta'lim jahon talablari va standartlariga mos keluvchi ijodkor, kompetent, mas'uliyatli, o'z kasbining ustasi, innovatsiyalarni tadqiq etishga tayyor bo'lgan mutaxassisni talab etmoqda [3].

L. Mitina kasbiy tayyorgarlik faoliyati o'z-o'zini rivojlantirish tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lib, oliy ta'lim bosqichida mutaxassisni o'z-o'zini namoyon qilishga olib keladi, degan fikrni bildiradi [4]. Har qanday kasb kognitiv va emotsional zaminga ega bo'lgani sababli, shaxsning qadriyatlarini va individual anglash tizimini o'zgartirishi mumkin.

Shaxsning har bir taraqqiyot bosqichida etakchi faoliyat uning faolligi va muvaffaqiyatga erishishini ta'minlaydi. D. Muxamedovanning ta'kidlashicha, faoliyatning etakchilik xususiyati shaxsda quyidagi psixologik xarakteristikalarni ifodalaydi:

shaxsni emotsional qamrab oladi;

ehtiyojlar yorqin, kuchli his-hayajonli holatlarda kechadiki, bu o'z o'rnida insonning emotsional hayotini boyitadi;

etakchi faoliyatda erishilgan yutuqlar hayotiy yutuqlar sifatida qabul qilinadi;

natijada charchash holatlari ko'tarinki ruh, engillik, qoniqish hislari orqali zo'riqishni engadi;

shaxsning murakkab ijtimoiy munosabatlari takomillashadi;

hayotdan to'la qoniqishga erishiladi [3].

Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, kasbiy takomillashuv davridagi etakchi faoliyat — malaka oshirish shaxsning faoliyatdagi integrativ rivojlanishidir. Ushbu jarayonda mavjud bilim, malaka va ko'nikmalar qayta ko'rib chiqilib, tahlil qilinadi hamda yangi, murakkabroq integrativ jarayonga o'tadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Barcha kasblar insonni o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini baholashga asoslangan shaxsiy intilishlar darajasini aks ettiradi, qolaversa, kasblar tanlovi, kasbiy o'zligini anglash, sub'ektdan yuksak faollik va mas'uliyatni talab qiladi. Samarali kasbiy o'zlikni anglash uchun quyidagilar zarur:

kasb tanlashda o'zining sifatlarini qiyosiy baholash;

kasblar olamini o'rganish, kasblar haqida qiyosiy tasavvurni shakllantirish;

kasb tanlashda o'zi uchun muhim omilni aniqlash, ya'ni shakllantirish va tanlangan kasbga mas'ullik va mas'uliyat bilan yondashish.

Ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgararga ta'sirini o'tkaza olish jarayonidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmaydi, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan turlicha, sub'ektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10–15 ta talabadan iborat guruhni olaylik. Ularning bilimi, ilmni idrok qilishlari, ota-onalarining kutuvlari, o'qituvchilarning berayotgan darslari va unda etkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xil. Lekin baribir, ana shu 15 nafar talabaning har biri shu ta'sirlarni o'zicha, o'ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o'quv ko'rsatkichlari, mas'uliyati hamda iqtidorida aks etadi.

Shaxs ijtimoiylashuvi to'g'risida gap ketar ekan, aytish kerakki, bu sof ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, u — individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borish jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, bir tomondan shaxs aktiv ravishda ijtimoiy ta'sirlarni qabul qiladi, ikkinchi tomondan esa, ularni hayotda o'z xulq-atvorlari, munosabatlarida namoyon etadi. Bu jarayon normal individda tabiiy tarzda ro'y beradi, chunki individda shaxs bo'lishga ehtiyoj, imkoniyat va zaruriyat bordir. Bola tug'ilib, ijtimoiy muhitga qo'shilgan ondan boshlab, undagi shaxs bo'lishga intilishni, undagi shakllanish jarayonini kuzatish mumkin (masalan, talabada kelajak haqidagi o'ylar).

Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Inson hayoti jarayonida bir maqsad sari intilib yashaydi va o'z-o'ziga "Men shuni qilishim kerak!" degan ustanovkani beradi. Ijtimoiylashuv jarayonida muvaffaqiyatga erishish inson uchun muhim omildir. Insoniy faollikka undovchi narsa ehtiyojdir. Avvalo bu — ma'naviy, madaniy ehtiyojlar va o'z-o'zini rivojlantirish bilan bog'liq ehtiyojlardir.

Ehtiyoj — inson ongida qandaydir predmet va hodisalarga nisbatan zaruriyatni aks ettirishdir. Psixologiyada quyidagi asosiy ehtiyojlar ajratiladi: tabiiy, moddiy, madaniy, ma'naviy, ijtimoiy. Tabiiy va moddiy ehtiyojlarning qondirilishi inson va hayvonlarning mavjud bo'lishini ta'minlaydi. Ijtimoiy ehtiyoj esa — baho olishga, biron-bir guruh a'zosi bo'lishga, muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan ehtiyojni nazarda tutadi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning muvaffaqiyatga erishish jarayoni uning o'z qo'lidadir. "Men o'zim" degan tushuncha insonda bolaligidan boshlab tarkib topadi. Yurishni boshlayotgan bolani qo'lidan ushlab yordam bermoqchi bo'lsangiz, u qo'lingizni surib, gapirmasa-da, harakatlari bilan "Men o'zim" degan holatni namoyon qiladi. Maktabga chiqqan bolani qo'lidan ushlab yozishni o'rgatmoqchi bo'lsangiz, "Yo'q, men o'zim" deydi. O'smir bolaga biror xatosini to'g'rilab ko'rsatmoqchi bo'lsangiz, "Men o'zim qila olaman, bilaman" deydi. O'spirin kasb tanlayotganida esa "Men o'zim kim bo'lishimni bilaman" deydi va hokazo.

Insonda bolaligidan ana shu "Men o'zim" degan tushunchaning barqaror bo'lishi, qiyinchilik va muammolardan qo'rqmasligi, o'z kelajagi va muvaffaqiyatini o'zi ta'minlashi uchun muhim ahamiyatga ega. Inson va uning ehtiyojlari oxir-oqibat uning manfaatlari bilan to'qnashadi. Har bir insonning o'z qarashlari, o'ylari, fikrlari tizimi — ularning majmuasi mavjud bo'ladi. O'y va fikrlar insonning o'z shaxsiy manfaatlarini ifodalaydi. Inson o'z shaxsiy manfaatlarisiz yashay olmaydi. Har bir odam, hatto eng kichik yoshdagi bolakaylarning ham o'z shaxsiy manfaatlari mavjud. Inson manfaatlari nafaqat shaxs, balki davlat va jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ehtiyoj va manfaatlar bizni maqsad sari etkaydi. Albatta, bu yo'lda shaxs muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin.

Boshlagan ishimiz, rejalashtirgan xatti-harakatlarimiz muvaffaqiyat bilan tugasa, xursand bo'lamiz. Lekin ishlarimiz o'xshamasa, muvaffaqiyatsizlikka uchrasak, tushkunlikka tushamiz, qaytib shu ishni qilishdan qo'rqamiz yoki undan qochamiz. Shunday vaziyatga tushgan bo'lajak mutaxassislariga qanday maslahatlar berish mumkin? Eng avvalo, inson hamma narsa uning qo'lida ekanligini unutmasligi lozim. Insonlar o'zgaralar va o'z fikrlari asosida o'zgaradilar. Birinchi navbatda biz o'z fikrlarimiz va so'zlarimiz xo'jayini bo'lishga harakat qilishimiz hamda shuni shakllantirishimiz lozim.



Shaxs faoliyatda tarkib topadi va shakllanadi. Yashash – bu harakatlanish demakdir. Inson hayoti – bu biri bilan o‘rin almashuvchi faoliyatlar tizimidir. Faoliyat – bu insonning voqelik bilan o‘zaro munosabati jarayoni bo‘lib (tabiiy va ijtimoiy), bu passiv jarayon emas, aksincha, ong bilan boshqariladigan, nisbatan ortiq yoki kamroq faollidir. Inson faoliyati bevosita ehtiyojlar bilan emas, balki aniqlangan maqsad asosida boshqariladi.

Inson faoliyati rang-barangdir. Faoliyat natijalariga ko‘ra, an‘anaga asosan uni amaliy yoki nazariy turga bo‘lish mumkin. Har qanday faoliyat ma‘lum bir g‘oyani hayotga tadbiiq etib, nazorat va boshqaruvni talab etadi. Eng ajoyib g‘oyalari jamiyat tomonidan ma‘lum faoliyatga tadbiiq etilgandagina yuqori bahoga ega bo‘ladi.

Tadqiqotimizda adaptiv intellekt bilan bog‘liq kasbiy qobiliyatlarni ham ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra baholashni talabalarimizga taqdim etgan edik. Pedagogik-psixologik faoliyat jarayonida zarur bo‘ladigan adaptiv intellekt bilan bog‘liq qobiliyatlar ahamiyatlilik darajasi bo‘lajak mutaxassislar tomonidan belgilanib, olingan natijalarda muhim ahamiyatga ega qobiliyatlar sifatida shaxslararo o‘zaro muloqot o‘rnatish (1), psixikani tadqiq etish (2), psixologik yordam berish (individual va guruhli psixologik maslahat) (3) belgilanib, bu talabalarning kasbiy yo‘nalishi doirasida amalga oshirishi kerak bo‘lgan ish faoliyatiga yordam beradigan qobiliyatlarni anglab yetayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, kasbiy rivojlanish dinamikasiga bevosita ta‘sir etuvchi qobiliyatlar — professional korreksion va diagnostik (7), olingan natijalarning maxfiyligini ta‘minlash (8), tadqiqot va tahliliy (ma‘lumot bilan ishlash, qiyinchiliklarni yengish) qobiliyatlar etarli darajada muhimligini anglash mavjud emasligi talabalar hali kasbi bilan bog‘liq fanlar, maxsus kurslarni to‘liq o‘rganmaganlari va ular haqida yetarli ma‘lumotga ega emasliklaridan dalolat beradi.

Faoliyat va hayotda muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik uchun maqsadlar aniq va shaxs imkoniyatlari darajasida bo‘lishi lozim. Har qanday ishda mas‘uliyat va mas‘ullik bo‘lish kerak. Hayotda muvaffaqiyatga erishgan va ijobiy fikrli kishilar yonida bo‘lishga intilish lozim. Zero, bunday kishilar sizga yordam berishdan qo‘rqmaydi.

Insonning uch dushmani bor — bu qo‘rquv, ikkilanish va xavotir. Bu uchalasi muvaffaqiyatsizlik omillaridir. Qo‘rquvni yenga olgan, o‘z kuchiga ishongan, ikkilanmagan kishinigina g‘alaba kutadi. Inson o‘ziga savol berishi kerak: “Men nimadan qo‘rqaman — o‘tmishdanmi yoki kelajakdanmi?” Shuni unutmaslik kerakki, 40% xavotir va qo‘rquvlar hayotga tadbiiq etilmaydi, 30%ni o‘zgartirib bo‘lmaydigan o‘tmish bilan bog‘liq bo‘ladi, 12% boshqalarga taalluqli bo‘lgan muammolar va tashvishlar, 10% esa bizni kasalliklar sari etaklaydi, faqat 8%gina haqiqatda harakat qilish, o‘z-o‘ziga ishonish sababli bo‘lishi mumkin bo‘ladi.

Inson faol va tashabbuskor bo‘lishga harakat qilishi lozim. Bir vaqtlar Abraham Linkoln: “Men har doim bir kuni kelishi mumkin bo‘lgan imkoniyatimni kutib, tayyor bo‘lib yashayman”, — degan edi. Muammolar va ularning echimidan qo‘rqish kerak emas. Boshqalar va o‘zingiz uchun maqbul bo‘lgan qarorlarni qabul qilishga va shu orqali muammoni echishga harakat qilish kerak. Muammoning echimi esa insonga huzur baxsh etadi.

Talabalik davri o‘ziga xos davrdir. XXI asr talabasi ijtimoiy faol shaxsdir. U o‘z rivojlanish traektoriyasini tanlash va uning negizida rivojlanish imkoniyatiga ega. Zamonaviy ta‘lim modelining mualliflari bo‘lajak mutaxassisga quyidagi talablar qo‘yilishini ta‘kidlaydilar:

- ommaviy kreativlik kompetensiyasi;
- ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish;
- o‘z ustida ishlash, ta‘lim olishga tayyorlik;
- maxsus bilimlarni egallash hamda kasbiy kompetensiyani shakllantirish;
- ta‘lim loyihalarida faol ishtirok etish, xorijiy tillarni egallash.

Talabani ijtimoiy faolligi shaxsning ikki tomoni bilan bog‘liq. Birinchi tomondan — shaxsning ichki resurslari, ehtiyojlari, ustanovkalari; ikkinchi tomondan — tashqi omillar. Talabani faolligi bu ikki tomonning uyg‘unligidir. Ijtimoiy faollik hayotimizning har jabhasida namoyon bo‘ladi. Talabani ijtimoiy faolligi o‘quv-amaliy faoliyatda ifodalanadi. Rus tadqiqotchisi O. P. Eliseeva shaxsning ijtimoiy faolligini bir necha tiplarga ajratgan:

Moslashuvchan tip. Bu tipdagi shaxs faolligi ichiga yo‘naltirilgan. Tinchliksevar, tashqi omillar ta‘sirida faolligi oshadi. Tashqi ta‘silarga beriluvchan, topshiriqlarni rahbar boshchiligida bajarishga moyil. O‘ta muloqotchan emas.

Raqobatchi tip. Tashqi olamga yo‘nalgan. Obro‘, mansab, e‘tibor, hukmronlik kabi sifatlar bu tipga xos. Muloqotchan, tashabbuskor, maqsad sari intiluvchan va raqobatni sevuvchi shaxsdir.

O‘z-o‘zini aktualashtiruvchi tip. Yuqori ta‘limiy motivatsiyaga ega, o‘z ustida ishlashdan to‘xtamaydigan, kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga intiluvchan tip.

Bunyodkor tip. Yangilik yaratishga, g‘oyalarni hayotga tadbiiq etishga, kasbiy faoliyatda ijodiy yondashishga intilgan tipdir.


XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quv faoliyatida yuqorida qayd etilgan tiplar sof holatda uchramaydi. Ular yagona faziyat bilan bog'liq holda turlicha namoyon bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan xarakteristikalaridan kelib chiqqan holda, talaba ijtimoiy faolligini belgilovchi sifatlarga kirishimlilik, ijtimoiy faollik, faoliyatni anglaganlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ijtimoiy muloqotchanlik, o'z ijtimoiy faoliyatidan qoniqqanlik kabilarni kiritish mumkin.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talaba doim faol shaxsdir va u har qanday faoliyatda inson sifatida u yoki bu darajada o'z harakatlarining maqsadini aniqlaydi, uning yakuniy natijasini xayol qiladi, vaziyatlarni baholaydi, ularning ketma-ketligini ta'minlash haqida fikr yuritadi, diqqatini yo'naltiradi, irodasiga zo'r beradi, boshqalar faoliyatini kuzatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi. Psixol. fan. dokt. ...dissertatsiyasi. Farg'ona. 1994.-310 b.67;68.
2. Karimova V.M. Psixologiya.- T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
3. Мухамедова Д.Г. Совершенствование социально психологических технологий развития подготовки менеджера образования к инновационной деятельности. Диссерт.доктора психол.наук.-Т: 2015 год.
4. Митина Л. М. Психология профессионального развития учителя.-М.: Флинта. МПСИ-1998.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.